

INNOVATION TADBIRKORLIK – YANGILIK YARATISHNING ALOHIDA IJODKORLIK JARAYONIDIR.

ИННОВАЦИОННОЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО — ЭТО СПЕЦИФИЧЕСКИЙ ТВОРЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СОЗДАНИЯ НОВШЕСТВ.

INNOVATIVE ENTREPRENEURSHIP IS A CREATIVE PROCESS OF CREATING NEWNESS.

Alyaminov Xayrulla Islamovich

Arxitektura kafedrası dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi,

Qoraqalpoq Davlat universiteti, Nukus shahri.

Annotatsiya: Maqolada talabalar uchun tadbirkorlik sohasida muvaffaqiyotlarga erishish yo'llarini, tadbirkorlik g'oyasini izlashdan boshlab, tashkilotning iste'molchilar uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradigan aniq loyihani amalga oshirish zanjirini ochib beriladi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlikning to'rtta motivatsion, kongnitiv, faoliyatli, innovatsion jihatini ajratib o'tilgan. Mazkur komponentlar ichidagi eng muhimi faoliyatli komponent hisoblanib, ular: iqtisodiy hayotga bevosita ishtiroki, talabalarning ta'lim jarayonidagi innovatsion tadbirkorlikga oid bilimlarni o'zlashtirish darajasi, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarga egaligi hisoblanishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, yangi g'oya, biznes-reja, resurs izlash, motivatsion, kongnitiv, faoliyatli, innovatsion.

Аннотация. В статье раскрываются пути достижения студентами успеха в предпринимательстве, начиная с поиска предпринимательской идеи и заканчивая реализацией конкретного проекта, позволяющего организации производить востребованную потребителями продукцию. Также выделены четыре мотивационных, когнитивных, деятельностных и инновационных аспекта подготовки студентов к инновационной предпринимательской деятельности в высших учебных заведениях. Наиболее важным компонентом в этом ряду является деятельностный компонент, который включает: непосредственное участие в экономической жизни, уровень освоения студентами знаний в области инновационного предпринимательства в образовательном процессе, наличие навыков и умений, необходимых для осуществления инновационной предпринимательской деятельности.

Ключевые слова. предпринимательство, инновационное предпринимательство, новая идея, бизнес-план, поиск ресурсов, мотивационный, когнитивный, активный, инновационный.

Abstract. The article reveals the path to success in entrepreneurship for students, from the search for an entrepreneurial idea to the implementation of a specific project that allows the organization to produce a product necessary for consumers. In addition, four motivational, cognitive, activity, and innovative aspects of student preparation for innovative entrepreneurial activities in higher education institutions are distinguished. The most important of these components is considered to be the active component, which includes: direct participation in economic life, the level of students' mastery of knowledge about innovative entrepreneurship in the educational process, and the possession of the skills and qualifications necessary for the implementation of innovative entrepreneurial activities.

Keywords: *entrepreneurship, innovative entrepreneurship, New Idea, business plan, resource search, motivational, cognitive, active, innovative.*

Kirish. Mamlakatimizning OTMlarida innovatsion tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va uni ishlab chiqarish korxonalari bilan korporativ birga ishlash yo'llarini aniqlashda o'ziga xos imkoniyatlar eshigini ochishi aniq, bu ikki tomonlarning ya'ni ish beruvchi korxona bilan bo'lajak ishchi talabalik davridan boshlab korxona buyurtmasini bajarishga qaratilib ikki tomon manfaatlarini hisobga olish mexanizmlarini ishlab chiqish kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda.

Iqtisodiy erkinlik har bir OTMning rivojlanishida va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish orqali OTM bitiruvchilarining kelajakda raqobatdosh kadrlarni mamlakatimizga tayyorlash va tarbiyalashda bozor iqtisodiyoti davrida yangi ish o'rinlarini yaratishda tezkorlikda bozor ehtiyojlariga moslashishni talab etmoqta. OTM dagi tayyorlanayotgan yo'nalishlarni bozor talablariga mosligini ta'minlaydi.

Tadqiqot metodi muammoga doir ilmiy va maxsus adabiyotlar, loyihalarni tahlil qilish. Talabalarning tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishga Karatilgan taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

Tadqiqot natijasi. Tadbirkorlikni – kapitalni yo'naltirishning yangi sohalarini izlash, mavjud mahsulotlar ishlab chiqarishni takomillashtirish va yangilarini yaratish, shaxsiy ustuvorlikni rivojlantirish, daromad olish uchun turli imkoniyatlardan samarali foydalanish deb ta'riflash mumkin. Shu bilan birga tadbirkorlik bozor uchun yangi mahsulot ishlab chiqarish, faoliyat sohasining o'zgartirilishi yoki yangisi korxona yoki tarmoq barpo etilishida majburiy foydalanish deb tavsiflanadi. Tadbirkorlik mohiyatini idrok etishda tadbirkorlarning o'zaro bog'liq to'rt faoliyatini alohida ko'rsatgan amerikalik iqtisodchilar R.Mak Konnell va S.Yu. Bryularning quyidagi nuqtayi nazarlari alohida ahamiyat kasb etadi:

– tadbirkor yer, mablag' va mehnat resurslarini mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat jarayoniga birlashtirish tashabbusini o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor biznesni olib borish jarayonida asosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishni, ya'ni biznesni rivojlantirish yo'nalishlari, korxona faoliyati yo'nalishini belgilovchi operatsiyalarni o'z zimmasiga oladi;

– tadbirkor yangi mahsulot (xizmat)larni ishlab chiqarishga intiluvchi, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi yoki biznesni tashkil qilishni va rivojlanishning yangi shakllarini olib kiruvchi tashabbuskor shaxsdir;

– tadbirkor tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan xavfni o'z zimmasiga oladi, zero, tadbirkor uchun daromad olish kafolatlanmagan, sarf etilgan vaqt, harakat va qobiliyatlardan daromad olish barobarida zarar ko'rish ham mumkin.

Bunday hollarda tadbirkor nafaqat o'zining o'z vaqti, mehnati va ishbilarmonlik obro'si bilan, balki sarf etilgan mablag' bilan ham tavakkal qiladi. Shunday qilib, ijodkorlik tadbirkorlik vazifalaridan biri bo'lib, tadbirkorlik faoliyatida doim mavjud bo'lishi shartdir. Darhaqiqat, yangi g'oyalarni izlash va ularni tatbiq etish tadbirkorlikning eng muhim va shu bilan birga eng murakkab vazifasidir, chunki, bu holda tadbirkordan nafaqat ijodiy fikrlash va yangi yechimlarni topish, balki istiqbolli fikrlash, kelajakdagi jamiyatning ehtiyojlarini ko'ra olish xususiyatini ham talab etadi. Innovatsiyalar – tadbirkorlikning maxsus quroli bo'lib, bunda innovatsiyalar o'z holicha emas, balki yangiliklarni yo'naltirilgan tashkiliy izlash, ularga tadbirkorlik tarkiblarining muntazam qaratilganligidir. Tadbirkorlar fikrlashning innovatsion turini farqlaydi, innovatsion faoliyat esa o'zida tadbirkorlikning alohida qurolini aks ettiradi.

Innovatsion tadbirkorlik – tadbirkorlik faoliyati barcha jabhalarining asosi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir. Chunki, innovatsion tadbirkorlik – bir paytning o'zida ham iqtisodiy holat, ham jarayondir. Iqtisodiy holat sifatida tadbirkorlik iste'molchilarga ma'lum tavsiflarni (ish xizmat), zarur natijani olish bo'yicha ishlab chiqarish va sotish, ishlab chiqarish munosabatlarning shakli sifatida namoyon bo'lsa, iqtisodiy holat sifatida esa, tovar (ish, xizmat) sotish jarayonida iste'molchilar[1] bilan, mahsulot yetkazib beruvchilar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar, yollangan ishchilar va nihoyat, davlat va boshqa boshqaruv tashkilotlari bilan o'zaro muomalada yuzaga keladigan munosabatlarning barcha tizimini o'zida aks ettiradi.


Tadbirkorlik jarayon sifatida harakatlarning – tadbirkorlik g'oyasini izlash (tug'ilishi)dan boshlab, tashkilotning iste'molchilar uchun zarur mahsulot ishlab chiqarishga imkon beradigan aniq loyihasiga aylanishiga qadar murakkab zanjirni o'zida aks ettiradi. Ushbu jarayon foydaning ma'lum hajmini qo'lga kiritish bilan nihoyalanadi. Shunga ko'ra tadbirkorlik jarayon sifatida to'rt asosiy bosqichni o'z ichiga oladi:

- yangi g'oyalar izlash va ularni baholash;
- batafsil biznes-reja tuzish;
- zarur resurslarni izlash;
- yaratilgan korxonani boshqarish.

Darhaqiqat, biznes-rejani ishlab chiqish bilan birga g'oyalar tanlanadi va baholanadi, shu vaqtning o'zida yaratilayotgan innovatsion tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilishi va patent olish uchun talabnoma berilishi mumkin. Innovatsion tadbirkorlik uchun yangi g'oyalarni izlash va yaratilayotgan intellektual mahsulotni himoya qilish kabi bosqichlari aynan muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion tadbirkorlik – g'oya va ixtirolardan amaliy foydalanish orqali yangi tovar va texnologiyalar yaratish jarayoni hisoblanadi. Shunday qilib, tadbirkor-novatorning vazifasi – ixtirolarni tatbiq etish bilan birga ishlab chiqarishni isloh qilishdir, yanada kengroq ma'noda yangi texnologik imkoniyatlarni qo'llash orqali yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot bozori ochilishi yoki yangi manbaning ochilishi evaziga eski mahsulotlarni yangi uslubda ishlab chiqarishdan iborat[2].

Innovatsion tadbirkorlik – bu muntazam ravishda yangi imkoniyatlarni izlash, innovatsiyalarga yo'naltirilganlikka asoslangan, yangilik yaratishning o'ziga xos ijodiy va xo'jalik faoliyatidir. Mazkur jarayon mavjud loyihalarni takomillashtirish yoki yangi tizimlarni joriy etishdagi tavakkalchilikni, shuningdek, bunda yuzaga keladigan moliyaviy, ma'naviy va ijtimoiy ma'suliyatni to'liq zimmasiga olishni taqozo etadi. Innovatsion tadbirkorlik doirasida yangiliklar (mahsulot, xizmat yoki ilg'or texnologiyalar ko'rinishida) yaratiladi va amaliyatga tatbiq etiladi O'z mohiyatiga ko'ra innovatsiya texnik, iqtisidiy, tashkiliy yoki madaniy xarakterdagi yangi jarayon va vositalarni shakllantirish bo'lib, u faoliyat uslublarini tuvdan takomillashtiruvchi radikal yangiliklar tizimini o'z ichiga oladi. Innovatsion tadbirkorlikning konseptual sxemasi harakatlantiruvchi kuchi, shart-sharoitlari va natijasini o'zaro bog'laydi:



1-rasm. Innovatsion tadbirkorlik faoliyatining ko'p funksiyali tizimli modeli.

Munozara. Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar, sharoitlar, imtiyoz va afzalliklar berilayotgani, xo'jalik yurituvchi subyektlar sonining ko'payayotgani, bunda erkin raqobat munosabatlarining rivojlanishi hamda iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish yo'nalishiga bo'layotgan talabning oshib borishi bilan asoslanadi. Iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi bo'lib faqat ishlab chiqarish omillari va investitsiyalar asosida iqtisodiy rivojlantirish emas, balki ular

bilan birga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirish asosida kelajakda innovatsion iqtisodiyot modeliga o'tish lozimdir. Biz o'z tadqiqotimiz davomida oliy ta'lim muassasalarida talabalarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlikning to'rtta jihatini ajratib o'tishga harakat qildik(1-jadvalga qarang):

1-jadval. Talabalarni innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarligining tarkibiy jihatlari(komponentlari)

T/r	Tayyorgarlik jihatlari	Mazmuni va uning tarkibiy elementlari
1.	Motivatsion	Talabalardagi sabablar(motivlar), ehtiyojlar, aniq maqsad sari harakat qilish intilishi va qadriyatlar yig'indisi
2.	Kognitiv	Talabalarning iqtisodiy soha hamda innovatsion tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlar majmusai
3.	Faoliyatli	Talabalarda innovatsion tadbirkorlik faoliyatining har xil amaliy turlari jarayonida shakllantiriladigan ko'nikma va malakalar.
4.	Innovatsion	Har bir talabaning kasbiy va funksional vazifalarini bajarishida namayon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik shaxsiy sifatlari

Mazkur komponentlar ichidagi eng muhimi faoliyatli komponent hisoblanib, ular: iqtisodiy hayotga bevosita ishtiroki, talabalarning ta'lim jarayonidagi innovatsion tadbirkorlikga oid bilimlarni o'zlashtirish darajasi, innovatsion tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarga egaligi hisoblanadi.

OTMlarda talabalarning innovatsion tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarliginig kognitiv komponentlik mohiyati:

- tadbirkorlikni rivojlantirish;
- talabalarning tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar faoliyati haqidagi bilimlar;
- Har xil turdagi tovarlarni ishlab chiqarish texnologiyalarini bilishi hisoblanadi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda OTMlarda talabalarning tadbirkorlik faoliyatini innovatsion rivojlanish yo'nalishlarini shakllantirishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- tadbirkorlik subyektlarining innovatsiyalarga maksimal darajada ta'sirchanligini ta'minlaydigan sharoitlarni yaratish;

- ilg'or texnologiyalarni tijoratlashtirish sohasidagi mavjud vaziyatni tubdan o'zgartirish zaruriyatini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi innovatsion infratuzilmalar faoliyatini shakllantirish;

- ta'lim jarayonida talabalarni fanlarning amaliy mashg'ulotlarida Startup loyihalariga ishlanmalarni tayyorlashga jalb etish;
- talabalar tomonidan yaratilgan tadbirkorlikga oid yangi g'oya va mahsulotlarni bozor sharoitida realizatsiya etish uchun marketing yordamchi bo'limlarni tashkil etish.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Х.Аляминов. Подготовка студентов к инновационному предпринимательству в университетах. Журнал текущих исследований по педагогике, 4(11), 56-60. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-11-10>
2. Болтаев Ш.Ш, Рахматов А.А. Тadbirkorlikni инновацион ривожлантиришнинг айрим жиҳатлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 5, октябрь, 2019 йил “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий журнали. №2, апрель, 2021 йил. ISSN: 2181-10163.
3. Жўраев Т.Т, Каландаров Р.А. Кичик бизнес ва тadbirkorlikni ривожлантириш орқали иқтисодиётнинг реал секторини инновацион тараққиётини таъминлаш. Илмий-оммабоп рисола.- Т., 2019 йил., 52 б
4. Кирьяков А.Г, Максимов В.А. Основы инновационного предпринимательства. – М.: Феникс, 2002. – С. 160.
5. Аляминов. Х. И. (2023). Инновацион тadbirkorlik-шахс шаклланишида муҳим фактор сифатида. Quality of teacher education under modern challenges, 1(1), 77-81.
6. Alyaminov, X. I. (2023). Innovative entrepreneurship in students as a factor of socioeconomic development of society. Zibaldone Estudios Italianos, 10(2), 393-399.